


FARG'ONA VILOYATI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- aprel holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 35,7 mingtani tashkil etadi, shundan 29,2 mingtasi yoki 81,7 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 89,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	35 717	29 479	29 193
2024	39 049	32 853	32 644
2023	42 309	36 368	36 143
2022	47 415	41 322	41 074
2021	43 168	37 183	36 927

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Farg'ona shahrida – 17,6 foiz, Qo'qon shahrida – 10,0 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,6 foiz va Uchko'prik tumanida – 5,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Marg'ilon shahrida – 87,1 foiz va 86,2 foiz, Quvasoy shahrida – 85,6 va 84,6 foiz, Qo'qon shahrida – 85,6 foiz va 84,6 foiz hamda Oltiariq tumanida – 85,6 foiz va 85,4 foiz to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Farg'ona viloyati	35 717	29 479	29 193
Farg'ona shahar	6 302	5 223	5 148
Qo'qon shahar	3 582	3 065	3 029
Marg'ilon shahar	2 701	2 352	2 329
Oltiariq tumani	2 030	1 737	1 733
Uchko'prik tumani	1 822	1 555	1 512
Farg'ona tumani	1 625	1 288	1 272
Quva tumani	1 602	1 269	1 259
O'zbekiston tumani	1 598	1 285	1 280
Rishton tumani	1 565	1 231	1 227
Toshloq tumani	1 472	1 245	1 239
Dang'ara tumani	1 469	1 214	1 204
Buvayda tumani	1 400	1 131	1 125
Bag'dod tumani	1 377	1 059	1 052
Quvasoy shahar	1 326	1 135	1 122
Qo'shtepa tumani	1 309	1 056	1 045
Beshariq tumani	1 284	984	982
Yozyovon tumani	1 236	1 017	1 010
So'x tumani	1 062	887	883
Furqat tumani	955	746	742

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- aprel holatiga 33,8 foizni (40,9 foiz va 41,1 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,3% (19,7% va 19,6%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 5,9% (7,1% va 7,1%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 427	1 384	1 376
Sanoat	5 819	5 808	5 729
Qurilish	2 118	2 097	2 071
Savdo	12 061	12 061	11 990
Tashish va saqlash	1 358	1 351	1 340
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 933	1 927	1 923
Axborot va aloqa	554	550	549
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 465	1 071	1 058
Boshqa turlar	8 982	3 230	3 157

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 29,5 mingta faol tijorat korxonalaridan 20,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	20 193	68,5
Xususiy korxonalar	5 116	17,4
Oilaviy korxonalar	3 753	12,7
Aksiyadorlik jamiyati	43	0,1
Boshqalar	374	1,3

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shni munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 497 ta korxonalaridan 207 tasi qo'shma korxonalar va 290 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 11 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 232 tadan 235 taga, (o'sish 3 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 20 tadan 23 taga (o'sish 3 taga) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida 12 tadan 15 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi hisobga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	497	207	290
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23	14	9
Sanoat	235	117	118
Qurilish	36	21	15
Savdo	114	29	85
Tashish va saqlash	14	5	9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	6	9
Axborot va aloqa	19	1	18
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	2	10
Boshqa turlar	29	12	17

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 151 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,4 foizini tashkil etdi. Farg'ona viloyatining iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (19,7%), Turkiya (13,1%), Qozog'iston (6,0%) va Janubiy Koreya (5,6%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	497	207	290
Xitoy	151	61	90
Rossiya	98	46	52
Turkiya	65	20	45
Qirg'iz.Respublikasi	30	14	16
Janubiy Koreya	28	15	13
Tojikiston	22	11	11
Ozarbayjon	12	2	10
Qozog'iston	11	5	6
Yaponiya	9	3	6
Germaniya	8	3	5
Afg'oniston	7	2	5
Belorusiya	7	2	5
Hindiston	4	1	3
BAA	3	1	2
Buyuk Britaniya	3	3	
AQSH	2	1	1
Turkmaniston	2	1	1
Pokiston	2		2

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama‘lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo‘yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo‘lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma‘lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma‘lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta‘minlaydi. Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma‘lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama‘lumot uchun havolalar:

[Metama‘lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas‘uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo‘nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas‘ul:
Statistik registrlarni yuritish bo‘limi

Ijrochi:
N. Toshqo‘ziyev
73 249-00-08 (4060)

Maznil:
150100, Farg‘ona sh.,
Oq yo‘l ko‘chasi, 104A
